


6-dars. Takrorlash. Tenglamalar



1. So'roq belgisi ortida qanday hayvonlar yashiringan?



Tenglamani yechish noma'lum sonni topish demakdir.
Topilgan son tenglamaning ildizi deb ataladi.

$$12 + x = 16$$

$$x = 16 - 12$$

$$x = 4$$

$$12 + 4 = 16$$

$$16 = 16$$

$$19 - x = 16$$

$$x = 19 - 16$$

$$x = 3$$

$$19 - 3 = 16$$

$$16 = 16$$

$$x - 12 = 13$$

$$x = 13 + 12$$

$$x = 25$$

$$25 - 12 = 13$$

$$13 = 13$$



2. Tenglamalarni yeching.

$$x + 16 = 37$$

$$98 - x = 47$$

$$x - 15 = 21$$



3. Masalani tenglama tuzib yeching.

Toshkentdagi hayvonot bog'iga 12 ta yangi qush keltirildi. Ulardan 3 tasi qirg'iy, qolganlari esa kakliklar. Hayvonot bog'iga nechta kaklik keltirilgan?



4. Hayvonot bog'idagi daraxtlar bir-biridan 10 metr masofada ekilgan. Ikki chekkadagi daraxt orasidagi masofani toping.





5. Hisoblang. Natijalarni santimetrlarga aylantiring.

$$5 \text{ dm } 4 \text{ cm} + 2 \text{ dm } 5 \text{ cm}$$

$$8 \text{ dm } 6 \text{ cm} - 2 \text{ dm } 4 \text{ cm}$$

$$6 \text{ dm } 1 \text{ cm} + 1 \text{ dm } 8 \text{ cm}$$


$$9 \text{ dm } 5 \text{ cm} - 7 \text{ dm } 3 \text{ cm}$$

$$3 \text{ dm } 3 \text{ cm} + 4 \text{ dm } 6 \text{ cm}$$

$$7 \text{ dm } 5 \text{ cm} - 2 \text{ dm } 1 \text{ cm}$$



6. Rasm asosida tenglama tuzing va uni yeching.




17 ta hayvon

Shunga o'xshash tenglama o'ylab toping va uni yechishni partadoshingizdan so'rang.



7. Hayvonot bog'i pavilyonlari bezak toshlari bilan muayyan tartibda bezatildi. Keyingi ikkita tosh qanday bo'ladi?



8. Hayvonot bog'iga 97 nafar 2-sinf o'quvchilari tashrif buyurishdi. Birinchi avtobusda 30 nafar, ikkinchisida esa 23 nafar o'quvchi ketdi. Qolganlari uchinchi avtobusda ketishdi. Uchinchi avtobusda necha nafar o'quvchi ketgan?

9. Katakchalar o'rniga harflar qo'yib, tenglamalarni yeching.

$$\square - 31 = 42$$

$$\square + 42 = 54$$

$$78 - \square = 15$$

